

QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARINING AKTYORLIK SAN'ATI VA MILLIY TEATR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Aytmuratov Baxtiyar Kenesbaevich – *registrator ofisi boshlig'i, doktorant.*

baxtiyar.aytmuratov.91@mail.ru

Ilmiy rahbar: Axmetjanova Muqaddas Vahabovna – f.f.d.(DSc), professor v.v.b

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

ВЛИЯНИЕ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ДАСТАНОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ АКТИОРНОГО ИСКУССТВА И НАЦИОНАЛЬНОГО ТЕАТРА

Айтмуратова Бахтияра Кенесбаевича – *начальника офиса регистратора, докторанта.*

Научный руководитель: Ахметжанова Мукаддас Вахабовна – д.ф.н., (DSc), и.о.профессора

Нукусский филиал Государственной консерватории Узбекистана

THE INFLUENCE OF KARAKALPAK FOLK EPICS ON THE FORMATION OF ACTING ART AND NATIONAL THEATRE

Aytmuratov Baxtiyar Kenesbaevich – *Head of the Registrar's Office, doctoral student.*

Scientific supervisor: Axmetjanova Muqaddas Vahabovna – Doctor of Philological Sciences,

(DSc), Acting Professor

Nukus Branch of the State Conservatory of Uzbekistan

Tayanch so'zlar: qoraqalpoq folklori, dostonchilik, baxshi, jirov, aktyorlik san'ati, milliy teatr, "Alpomish", musiqali drama, sahna talqini, milliy qadriyatlar, rejissura, badiiy obraz.

Rezyume. Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq dostonchilik an'alarining ma'naviy-madaniy ahamiyati, ularning milliy teatr va aktyorlik san'ati shakllanishidagi o'rni tahlil qilingan. Dostonlarda ifodalangan qahramonlik, vatanparvarlik, adolat va insonparvarlik g'oyalarining badiiy talqini yoritilgan. Shuningdek, baxshi va jirovlar ijrosida shakllangan "bir aktyor teatri" an'anasining aktyorlik san'ati rivojiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada Najim Dauqarayevning qoraqalpoq folklori va teatri taraqqiyotidagi xizmatlari, xususan, "Alpomish" dostoni asosida yaratilgan musiqali dramaning sahnaviy talqinlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Asarning turli davrlarda sahnalashtirilishi va uning milliy madaniyat rivojidadagi o'rni asoslab berilgan.

Ключевые слова: каракалпакский фольклор, эпос, башши, жиров, актёрское искусство, национальный театр, «Алпомыш», музыкальная драма, сценическая интерпретация, национальные ценности, режиссура, художественный образ.

Резюме. В данной статье рассматривается духовно-культурное значение каракалпакских эпических традиций и их роль в формировании национального театра и актёрского искусства. Освещаются художественные интерпретации идей героизма, патриотизма, справедливости и гуманизма, отражённых в эпосах. Также анализируется традиция «театра одного актёра», сформировавшаяся в исполнении башши и жиров, и её влияние на развитие актёрского мастерства. Особое внимание уделено научно-творческой деятельности Нажим Даукараев, а также сценическим интерпретациям музыкальной драмы «Алпомыш», созданной на основе народного эпоса. Обосновывается значение данного произведения в развитии национальной культуры.

Key words: karakalpak folklore, epic tradition, bakhshi, jirov, acting art, national theater, "Alpomish", musical drama, stage interpretation, national values, directing, artistic image.

Summary. This article examines the spiritual and cultural significance of Karakalpak epic traditions and their role in the formation of national theater and acting art. It highlights the artistic interpretation of ideas such as heroism, patriotism, justice, and humanism reflected in epics. The study also analyzes the tradition of the "one-actor theater" formed through the performances of bakhshi and jirov, and its influence on the development of acting skills. Particular attention is given to the scientific and creative activity of Najim Dauqarayev, as well as to the stage interpretations of the musical drama "Alpomish" based on the народ epic. The significance of this work in the development of national culture is substantiated

Dostonlar qadimdan qoraqalpoq xalqining boy ma'naviy merosi sifatida shakllanib kelgan. Qoraqalpoq folklorida keng tarqalgan "Alpomish", "Edige", "Qiriq qiz", "Maspatsha", "Qoblan", "Sharyar", "Er Shora", "Er Ziyuar"

kabi dostonlar xalqning turmush tarzi, diniy va dunyoviy qarashlari, o'y-fikrlari, orzu-intilishlarini aks ettiradi. Mazkur asarlarda tasvirlangan qahramonlar orqali xalqning birlikka intilishi, adolat yo'lida kurashi, vatanni himoya

qilish, unga munosib farzand bo'lish, do'stlik va muhabbat kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Shu bilan birga, dostonlar nafaqat badiiy-estetik qadriyat sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etgan muhim manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda ajdodlarning hayot tarzi, urf-odatlar, an'analar, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlari badiiy obrazlar vositasida avlodlardan avlodga yetkazib kelinmoqda. Ayniqsa, dostonlardagi qahramonlik motivlari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq dostonchilik an'analariga og'zaki ijod mahsuli sifatida baxshi va jirovlar ijrosida shakllanib, o'ziga xos ijro maktabini yuzaga keltirgan. Ushbu ijro jarayonida so'z, ohang, musiqa va dramatik ifoda uyg'unlashib, tinglovchiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Shu bois dostonlar nafaqat folklor namunasi, balki sahnaviy san'at rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Baxshi va jirovlar dostonlarni nafaqat yaratgan, balki unga kuy bastalab, soz chalib, uni o'zlari ijro etganlar. Bu holat qadimdan "bir aktyor teatri" an'anasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, epos ijrochisi bir vaqtning o'zida bir nechta obrazni gavdalantirib, turli xarakter va ruhiy holatlarni ifodalagan. Natijada, qadimiy dostonlardagi Alpomish, Edige, Qoblan, Guloyim, Gulparshin, Sharyar, Sarbinaz kabi qahramonlar teatrlashtirilgan shaklda yagona ijrochi - baxshi tomonidan jonlantirilgan.

Mazkur jihat qoraqalpoq aktyorlik san'atining ildizlari bevosita xalq og'zaki ijodi va baxshichilik an'alariga borib taqalishini ko'rsatadi. Chunki baxshi ijrosida mujassam bo'lgan dramatism, obrazlilik, ovoz va harakat uyg'unligi keyinchalik professional teatr san'atining shakllanishiga zamin yaratgan.

Qoraqalpoq folklorini chuqur o'rganishda jahon miqyosida tan olingan taniqli olim va yozuvchi Najim Dauqarayevning ilmiy-adabiy faoliyati hamda tashkilotchilik xizmatlari alohida ahamiyatga ega. U o'tgan asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlab qoraqalpoq og'zaki ijodini tizimli ravishda to'plash, o'rganish va ilmiy asoslash ishlarini amalga oshirgan. Olim tomonidan to'plangan materiallar va tadqiqotlar nafaqat folklorshunoslik, balki milliy teatr va aktyorlik san'ati rivojida ham muhim manba vazifasini o'tagan. Shunday qilib, qoraqalpoq dostonchilik an'analariga va ularning ilmiy o'rganilishi milliy teatr san'ati, xususan, aktyorlik ijodining shakllanishi va taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

N.Dauqarayev Qoraqalpoq teatrlarining shakllanishi va rivojida ham katta hissa qo'shgan. Uning "Alpomish" dostoni asosida yaratgan pyesasi qoraqalpoq dramaturgiyasining muhim va barqaror meroslaridan biri hisoblanadi.

"Alpomish" pyesasining yaratilish tarixiga nazar tashlasak, N.Dauqarayev asarlarining to'liq to'plami birinchi jildiga yozilgan kirish so'zida G.Esemuratov quyidagilarni ta'kidlaydi: "...N.Dauqarayevning o'z qo'li bilan o'quvchilar daftarlariga ("shaxmat", "arba yo'l", "qiyshiq chiziq" deydi bolalar) yozilgan (ba'zi joylarda arabcha qo'shimchalar berilgan) "Alpomish" pyesasi uning erta qo'lga olinganini isbotlaydi. Muallifning o'zi ushbu pyesaning yozilgan vaqtini 1938-1939-yillar deb ko'rsatadi. Demak, bundan pyesa ustida uzoq vaqt ishlagani anglashiladi. "1940-yil bo'lsa kerak", - deb bu holatni tasdiqlovchi ma'lumot beradi. [1.25]

Toshkent shahrida Qoraqalpoq san'ati va adabiyotining dekadasini o'tkazish masalasi bo'yicha 1940-yil boshlarida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hukumatlari maxsus qaror qabul qiladilar. Dekada 1941-yil yozida o'tkazilishi belgilandi va shu davrda "Alpomish" pyesasi dekada repertuariga kiritildi. Dekadaga tayyorgarlik jarayonida Toshkentdan rejissor Javod Abidov, baletmeyster Ali-Ardous Ibragimov va Moskvadan kompozitor Viktor Shafrannikovlar chaqirtirildi. 1940-yilning ikkinchi yarmidan spektaklga tayyorgarlik ishlari boshlangan. Pyesaning musiqasini kompozitor V.G.Shafrannikov yaratdi, ammo N.Dauqarayev ham unga katta yordam ko'rsatdi. Dutorda qoraqalpoq xalq qo'shiqlari va musiqalarini chalib, ularni o'z ijrosi bilan jonlantirdi. Natijada milliy ohanglarga boy, kompozitorlik jihatdan yuqori darajada musiqali drama yaratilgan. "Alpomish" musiqali dramasi sahnalashtirish teatr jamoasi 1941-yil boshida boshladi, ammo ikkinchi jahon urushi boshlanganligi sababli repetitsiyalar to'xtatildi. Shu davrda teatr jamoasiga urushga ketayotgan askarlarning va front ortidagi xalqning ruhini ko'tarish vazifasi yuklandi. Shu yilning o'zida teatr To'rtko'l shahridan Qoraqalpog'istonning yangi poytaxti Nukus shahriga ko'chib keldi. Natijada "Alpomish" musiqali dramasi "Qoraqalpaq iskusstvosinin' jan'a tabisi" nomli pyesaning 1942-yil 7-noyabrda K.S.Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat teatrida namoyish etilishi munosabati bilan "Qizil Qoraqalpoqiston" gazetasining 1942-yil 13-noyabrdagi 263-sonida maxsus sahifa ajratildi. [2.27] Spektakl jamoatchilik oldida katta muvaffaqiyat qozondi. Ikkinchi jahon urushi yillarida bu asarning

sahnaga qo'yilishi katta tarixiy va madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi, botirlarning obrazlari xalqqa ruhiy kuch bag'ishladi.

Spektaklni sahnalashtirgan rejissorlar J.Obidov va T.Allanazarov bo'lib, xormeyster sifatida Kiyv konservatoriyasining dotsenti Y.D.Fastovskiy, bezakchi-xudojniklar esa Mixayl va Antonina Ladurlar spektakl dizaynining uyg'unligini ta'minladilar. Asar davrning talablariga mos ravishda "Xalq uchun! Nomus uchun!" shiori ostida sahnalashtirildi. Bosh rollarda Alpomish - Y.Mamutov, Gulparshin - T.Raxmanova, Baysari - Y.Sharipov, Baybori - E.Dauletov, Tayshaxan - X.Saparov, Aqbilek - S.Qarabayeva ijro etib, yuqori mahorat ko'rsatdilar va xalqning cheksiz olqishlariga sazovor bo'ldilar. Spektakldagi yutuqlar uchun bir qator ijodkorlar hukumat tomonidan mukofotlandi; shulardan biri kompozitor V.Shafrannikovga "Qoraqalpog'iston xalq artisti" unvoni berildi.

1961-yili 1-mayda Y.Mamutovning rejissorligida, xudojnik Q.Sayipov ishtirokida "Alpomish" spektakli sahnalashtiriladi. Bosh roldagi qahramonlar va yosh aktyorlar katta ishtiyoq bilan tayyorlanib, ijro etishgan bo'lsa-da, spektakl tomoshabinlar ko'nglidan chiqmaydi. "Sovet Qoraqalpog'iston" gazetasining 1961-yil 9-maydagi sonida chop etilgan "Alpomish" nomli retsenziyada yozuvchi X.Seytov spektaklning ijobiy tomonlarini qayd etgan holda, uning tomoshabinlarga yetarlicha ta'sir qila olmaganini ham alohida ta'kidlagan. Oradan yillar o'tib, mustaqillik yillarida milliy madaniyatimiz, merosimiz va urf-odatlarimiz qayta o'rganilib, yosh avlodga "Alpomish" asarini sahnada qayta taqdim etish imkoniyati yuzaga keldi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Najimatdin Ansatbaevning ma'lumotiga ko'ra: "... 2007-yil N.Dawqarayevning "Alpomish" musiqali dramasi men sahnalashtirish uchun qo'limga oldim. Piesa bugungi kun talabiga mos kelmadi va piesaning to'liq kartinalari topilmadi. Shunday qilib, men dostonning barcha variantlarini o'qib, o'rganib chiqdim. Sahna variantini qayta ishlab chiqib, uni to'liq to'pladim. Ardoqli kompozitor, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston san'at arbobi Najimatdin Muxammeddinov V.Shafrannikov musiqalarini boyitib, qayta yozib chiqdi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq rassomi Islam Alibekov sahnani xalqimiz milliylikini aks ettiradigan ko'rinishlarda bezab, kiyim-kechaklarni qayta tanlab, sahnani boyitdi".

Natijada qahramonlik, adolat, vatanparvarlik va ota-onaga muhabbat orqali yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan, butun xalqning

g'am-qayg'usi bilan uyg'unlashgan katta asar yaratildi. "Erkin Qoraqalpog'iston" gazetasining 2007-yil 3-noyabr sonida professor Sh.Karimxojayev shunday yozadi: "...Shuncha vaqtlarni yig'ib teatr sahnasiga joylashtirish xalqaro teatr rejissurasi darajasida amalga oshirilgan, uning rejissorlik mahoratining eng baland cho'qisiga chiqqanligini ko'ramiz", deb Najimatdin Ansatbaevning rejissorlik mehnatiga yuqori baho bergan edi.

N.Ansatbaev "Alpomish" musiqali dramasi sahnasiga teatrning yetakchi aktyorlari bilan bir qatorda hali sahnada uncha ko'rmagan yoshlarga ham bosh rollarni topshirgan. Alpomish roli - Marqabay Usenov, Gulparshin roli - Sarbinaz Annaqulova yuksak mahorat bilan ijro etganlar. U paytlari ular endigina teatrga qadam bosgan yoshlar edi. Spektaklning avvalgi sahnalashtirganlaridan yana bir farqi kartinalar ortasida jirov ijrosidan foydalanildi. Sababi "Alpomish", "Edige", "Sharyar", "Qoblan" va boshqa dostonlar bizning kungacha jirovlar repertuari orqali yetib kelganligi bugungi avlodlar ham bilishi, milliy merosimizga, o'tmishimizga, xalqimizga degan mehr tuyg'ulari ortib borishi ahamiyatli edi.

N.Dawqaraevning "Alpomish" pyesasi kelajak avlodlar uchun hali ko'p xizmat qiladi deb ishonamiz. Professor T.Bayandiyev ham "Alpomish" musiqali dramasi haqida o'zining "Qoraqalpoq sahnasining Berdaq shoiri" kitobida fikrlarini bildirib o'tadi. "...Avvalambor, ming yillik tarixga ega bo'lgan dostonlar xalqimizning ma'naviy boyligi. Hozirgi yoshlarimiz bu boylardan bahramad bo'lishi, uni o'rganishi, umumbashariy g'oyalardan oziq olishi va ma'naviy yuksalishi kerak. Shu jumladan qoraqalpoq teatri "Alpomish" musiqali dramasi tomoshabinlarga yangidan tortiq qilishi ayni muddao, dep o'ylaymiz. Qolaversa, teatr ijodiy jamoasi rejissor Najimatdin Ansatbaev rahbarligida "Alpomish" musiqali dramasi qayta sahnalashtirishga jiddiy yondashgan. Birinchi navbatda, musiqiy materialning asar mazmuni g'oyasiga hamohangligini ta'minlashga, qahramonlar ruhiyatini oshib beradigan, milliylikini taminlaydigan musiqiy materiallarni yangilashga, qoraqalpoq xalqining boy xalq musiqasi asosida milliy ruh bilan boyitishga harakat qilingan. Tan olish kerak, ko'p yillardan beri qoraqalpoq teatr sahnasida bunday boy, shirali, mazmundor, milliy koloritga yugirilgan, keng polotnoli musiqali dramani ko'rmagan edik", - deb spektakl haqida o'zining iliq fikrlarini bayon etadi. [3.93]

Qoraqalpoq rejissurasiga, aktyorlik mahoratiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Alpomish" spektakli

ham qoraqalpoq teatr repertuarida o‘shmas iz qoldirdi,- deb baralla aytishimiz mumkin.

Hulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq dostonchilik an‘analari milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida nafaqat ma‘naviy merosni saqlash, balki uning badiiy va ijodiy rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Dostonlarda mujassam bo‘lgan qahramonlik, vatanparvarlik, adolat va insonparvarlik g‘oyalari xalqning tarixiy xotirasi va ma‘naviy qadriyatlarini ifoda etib, avlodlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta‘minlaydi. Baxshi va jirovlar ijrosida shakllangan “bir aktyor teatri” an‘anasi esa qoraqalpoq aktyorlik san‘atining ildizlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishini yaqqol namoyon etadi. Ushbu an‘analar keyinchalik professional teatr san‘ati shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir. Najim Dauqarayevning ilmiy va ijodiy faoliyati esa qoraqalpoq folklori va teatr san‘ati taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning “Alpomish” dostoni asosida yaratgan pyesasi

milliy dramaturgiyaning yuksak namunasi sifatida sahna san‘atida mustahkam o‘rin egalladi.

Mazkur asarning turli davrlarda qayta-qayta sahnalashtirilishi uning badiiy qimmatini va tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Alpomish” musiqali dramasi uchun turli rejissorlik talqinlarida sahnalashtirilishi qoraqalpoq teatri ijodiy izlanishlar, milliy ruh va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligini ta‘minlaydi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida asarning qayta tiklanishi milliy qadriyatlarni yangicha talqinda namoyon etish imkonini berdi.

Umuman olganda, qoraqalpoq dostonchilik merosi va uning teatr san‘atidagi talqini milliy aktyorlik maktabining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu jarayon milliy madaniyatni asrab-avaylash, uni zamonaviy talablar asosida boyitish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.
2. Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. – T.: “O‘z RFA”, 1963. –170 b;
3. Н.Даўқараев Шығармаларының толық жыйнағы 1-том. Нөкис, 1970.
4. Bayandiev T., Sayfullaev B. Qoraqalpoq sahnasining Berdaq shoiri. –Toshkent, 2014. 114 b.
5. Bayandiev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. –Toshkent, 2011. –168 b.
6. Bayandiev T. San‘at masalalari-teatrshunos nigohida. –Toshkent, – 2009.-123 b.
7. Ansatbaev N. Teatr hám aktyor. –Nókis, 2020. –287 b.
8. Allanazarov T. Qoraqalpoq teaterında milliy rejissuranın qalıplesiwi. – Nókis: Bilim, 1996. –126 b.
9. Juzimbetov A. Qoraqalpoq teaterının qalıplesiwi hám rawajlanıwı. // Saniyat. 2016. 3-4 (43-44)-son
10. Ansatbaev N. Teatr pidayısı edi. // Saniyat. 2019. 1(51)-son.
11. Bayandiev T. Kamolot pillapoyalarida (Qoraqalpoq teatri san‘ati haqida oylar). // Teatr. 2014. 2-son.